

MADANIYAT VA MA'NAVIYAT MASALALARIDA KUTUBXONALNING ROLI

Rahmatullayeva O'gulxon Maxmudovna

Namangan viloyat tarixi va madaniyat davlat muzeyi xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston kutubxonalari tarixini o'rganishga qaratilgan bo'lib, O'zbekistondagi kutubxonalar misolida tahlil olib boriladi. O'zbekistondagi kutubxonalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ularning jamiyatdagi o'rni ilmiy asosda o'rganiladi.

Kutubxonalarining tarixi, ularning ilmiy va madaniy taraqqiyotga qo'shgan hissasi, shuningdek, hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, kutubxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar, ularning jamiyatdagi ahamiyati, axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashuvi ham ko'rib chiqiladi. Tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari, ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy kutubxonashunoslik yutuqlari asosida batafsil tahlil o'tkaziladi.

Annotation: The article describes the conditions under which the history of libraries in Uzbekistan was created, their contribution to cultural development and their achievements.

Bugungi kunda insonlarning dunyoqarashini har tomonlama kengaytirish, mustaqil fikrli, ma'nan yetuk kadrlarni tayyorlash har qachongidanda dolzarb masaladir, bu borada kutubxonalarining o'rni beqiyos. Kutubxona-bosma va qo'lyozma asarlardan aholining keng foydalanishini ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy va madaniy muassasa hisoblanadi. Kutubxonalar, asosan, bosma asarlarni yig'ish, saqlash ularni targ'ib qilish va kitobxon qiziqishlari va ularga tabaqalashtirilgan holda xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Kutubxonalarining asosiy maqsadi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga milliy istiqlol g'oyasining mazmun-mohiyatini targ'ib qilish hamda aholining huquqiy, madaniy hamda estetik saviyalarini oshirishga yordam berishdan iboratdir.

Qadimdan insoniyatga ma'naviy yuksalish uchun bevosita xizmat qilib kelgan, shaxsi yetuk insonlarning olgan tajribalarini keyingi avlodga qoldirish uchun insoniyat

tomonidan yaratilgan kashfiyot — kitob. Kitob insoniyat va jamiyat ma'naviyatini rivojlantirishda ajralmas bir qism sifatida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan bilim manbai, insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida kishilarni tarbiyalash, ularning aqliy rivojlanish vositasi bo'lib kelgan. Oltin meros sifatida qadrlanib kelingan hamda insoniyat yaratgan muomala vositalari ichida eng ishonchlisi, eng qulayi ham kitobdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ilm maskani bo'lgan kutubxona axborot muassasalari hamma bilim sohasini kerakli adabiyot bilan ta'minlaydigan mavjudlik shakllariga aylangan. Bugungi yoshlarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yuksaltirish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risidagi"¹gi qarori dasturulamal bo'lmoqda. Shu qarorga asoslanib barcha ta'lim muassasasidagi ARMLarda nashriyotlar bilan hamkorlikda "Kitob ko'rgazmalari" tashkillashtirib kelinmoqda. Bu o'z o'rnida muassasa o'quvchilarining mutolaa madaniyati hamda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini ortishiga yordam bermoqda. Qolaversa, ta'lim muassasalaridan tortib Respublika miqyosida bosqichma-bosqich o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon", "Eng zukko kitobxon" nomi ostida o'tkazilayotgan tanlovlar va g'oliblar uchun ajratilgan yirik sovrinlar yanada kitob mutolaasiga qiziqish ortishiga sabab bo'lmoqda. Har bir faoliyati davom etayotgan ustuvor yo'nalishlarda, xoh u muassasa bo'lsin xoh u strategiya yoki biron bir soha, barchasida o'zining keyingi taraqqiyoti uchun mo'ljallangan².

Kutubxona axborot muassasalari axborot bo'shlig'i sharoitida ish olib borgan, ular hatto qo'shni viloyat muassasalaridagi yangi chiqarilgan adabiyotlar yoki yuzaga kelayotgan kamchiliklardan ham xabardor bo'lishmagan. Kutubxona axborot muassasalari tarmog'ida yagona axborot xizmati tizimi mavjud bo'lmagan. Ta'kidlab o'tilgan muammolar ustida ishlanmasa, bu soha faoliyati tanazzulga yuz tutishi ehtimoldan holi emas edi. Muammolarni bartaraf etishning birdan bir yo'li viloyatlar va Respublika

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning - Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risidagi. 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli Qarori. **Qarang:** <https://lex.uz/docs/-3338600>

² https://www.natlib.uz/bbs/content/94_412

darajasida kompyuter tarmoqlarini tashkil etish bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi "Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"³ qarorining qabul qilinishi Kutubxonashunoslik sohasining rivojlanishidagi o'zgarishlarga hamda sohadagi muammolarni bartaraf etishga asos bo'lgan. Bu qarorning maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo'naltirilgan yangi axborot kutubxona muassasalarini barpo etish bilan aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. 2002-yil yurtimizda kutubxona axborot muassasalari faoliyatida tub o'zgarishlar yasagan yil bo'lgan. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasi va O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasining Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi negizida O'zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 20-fevraldagi "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoniga binoan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2002-yil 12-aprelda "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to'g'risida" qaror qabul qilingach, Milliy kutubxona to'g'risidagi Nizomni tasdiqlangan. Ushbu hujjatlarning qabul qilinishi yuqorida aytib o'tilgan muammo va kamchiliklarni oldini olish uchun poyqadam bo'lgan. Ta'kidlash joizki, insoniyat yaratgan muomala vositalari ichida eng ishonchlisi hamda eng qulayi kitobdir. Kitob avlodlar o'rtasidagi aloqa zanjiri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida Oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi Axborot resurs markazlarida tashkil etilgan sharoitlar talabalar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Kutubxona axborot muassasalarining yanada takomillashuvi yoki oqsab qolishi, unda faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning faoliyati hamda ularning qanday ma'lumotga ega ekanligi bilan uzviy bog'liqdir, shunga binoan sohaning rivojlanishida Oliy ta'lim muassasalarida yetishib chiqayotgan kadrlar salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda mustaqillikdan so'ng har bir sohada olib borilayotgan iqtisodiy,

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi "Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi. 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-381-son qarori. Qarang: <https://lex.uz/docs/-1018646?ONDATE=19.06.2017>

ijtimoiy, siyosiy, o'zgarishlar, rivojlanishlar, o'zini yangi bosqichida amalga oshirilmoqda. Ta'lim va madaniyat tizimida olib borilayotgan amaliy ishlar, xususan, yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar, imkoniyatlar, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hamda ularda milliy iftixor, milliy g'urur ruhiyatini shakllantirish masalasi asosiy maqsadimizdir. Mamlakatimizning ichki siyosatida ustuvor yo'nalish qilib, ma'naviyat va ma'rifat ishlarini amalga oshirish belgilab olindi. Shundan so'ng, milliy merosimiz bo'lgan qadriyatlarimiz yurtimizdan yetishib chiqqan, buyuk shaxslarning hayoti va ijodlarini o'rganishga respublikamiz tarixchilari, adabiyotshunoslari va boshqa soha mutasaddilari ham real yondosha boshladilar. Shular qatorida millatimiz hududida davrlar davomida tashkil etilib, faoliyat olib borgan kutubxonalar tarixini yoritishni va ular haqidagi manbalarni etkazish asosiy vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning - Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risidagi. 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli Qarori. **Qarang:** <https://lex.uz/docs/-3338600>

2. https://www.natlib.uz/bbs/content/94_412

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi "Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi. 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-381-son qarori. Qarang: <https://lex.uz/docs/-1018646?ONDATE=19.06.2017>